



ZOONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK IBORALARNING O'ZIGA XOS SEMANTIK XUSUSIYATLARI.

Barnoxon Boltayeva Botir qizi

RANCH universiteti "Jahon tillari" kafedrası o'qituvchisi
barnoxonboltayeva8@gmail.com

Yusupova Viktoriya Vladimirovna

Filologiya va tillarni o'qitish ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi
yusupovaviku06@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.18480505>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-yanvar 2026 yil
Ma'qullandi: 28-yanvar 2026 yil
Nashr qilindi: 31-yanvar 2026 yil

KEY WORDS

obraz, frazeologiya, tilshunoslik, psixologiya, zoonomik, komponent, semantik, analog.

ABSTRACT

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi Zoonomik iboralarining semantik jihatdan tahliliga bag'ishlanadi. Maqolada ushbu ikki tildagi hayvon nomi ishtirok etgan iboralarining kelib chiqishi tahlil qilinadi. O'xshashlik va farqli semantik xususiyatlari aniqlanadi va misollar bilan yoritilib, ushbu iboralarining ikki til nutqida ta'sirchanlikni oshirishdagi o'rni ko'rsatib beriladi.

Insonlar tildan foydalanar ekan, nutqdagi ta'sirchanlik va obrazlilikni oshirish maqsadida turli til birliklariga murojaat qiladilar. Bunday til birliklari orasida frazeologiya muhim o'rin tutadi.

Iboralar nutqqa ifodaviylik baxsh etadi, hamda fikrning yanada aniq va ta'sirchan yetkazilishi uchun zamin yaratadi. Iboralar xalqlarning tarixi, qadriyatlari va dunyo qarashi bilan bir qatorda, diniy qarashlari ta'siri ostida ham shakllanadi. Jahon tilshunosligi taraqqiyotida frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish zamonaviy ilmiy izlanishlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda. Bunday tadqiqotlar, avvalo, frazeologik birliklarning leksik-semantik va struktur xususiyatlarini chuqur tahlil qilish, ularning milliy xususiyatlarini ochib berish hamda maxsus lug'atlarni tuzishning nazariy-metodologik tamoyillarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Shuni ta'kidlash lozimki, zoonomik iboralarni o'rganish sohasida ham hozirgi kunda izlanishlar jadallashib bormoqda, shuningdek Odina Xoshimova ham bu sohada o'zining "O'zbek va ingliz tillarida zoonomik frazeologik birliklarning leksik-semantik va leksikografik tadqiqi" nomli izlanishlari orqali zoonomik frazeologiya sohasiga o'zining salmoqli hissasini qo'shgan.[1-6]

Tadqiqot materiallari va metodologiyasi. Frazeologik iboralarining bir qancha turlari mavjud bo'lsada, ularning ichida zoonomik iboralar alohida o'rin tutadi. Zoonomik iboralar so'zlarning oddiy ma'nosini yanada jonli va ta'sirli ifodalashga yordam beradi, ularda hayvonlar dunyosining obrazlari yorqin aks etadi. Zoonomik iboralar turmushdagi turli voqea-hodisalarga guvoh bo'lish, kishilarning xilma-xil harakat-holatlariga baho berish, tajribalarini umumlashtirish asosida xalq tomonidan hayvonlar orqali yaratilgan aniq-tiniq xulosalarning o'ziga xos obrazli ifodalaridir.[2] Hayvon nomi ishtirok etgan iboralar, ayniqsa, o'zbek va ingliz tillarida ko'p chraydi, ular ikki tilda inson fe'l atvori va hatti harakatini tasvirlashda semantik o'xshashliklar va farqlar hosil qiladi, bu borada Stankevich O.S o'zining "Ingliz tilidagi og'zaki

zoonimlarning semantik bo'limi" maqolasini ta'kidlab o'tish joizdir.[3] U o'zining maqolasida hayvon komponentli iboralarning inson fe'l atvorini ifodalashdagi ahamiyatini ochiqlab bergan.

Natijalar va muhokama. O'zbek tilidagi zoonomik iboralar madaniy va diniy ta'sirlar orqali shakllangani bois, ular o'zlarining ingliz tilidagi analoglari bilan solishtirilganda qiziqarli semantik va obrazli farqlarni namoyon qiladi.

Quyida ingliz va o'zbek tillaridagi zoonomik iboralar qiyosiy tahlil qilinadi.

Ingliz tilida "wouldn't say boo to a goose" iborasi muloyim, beozor va hech kimga ozor yetkazmaydigan insonlarni tasvirlashda qo'llanadi.[4] Ushbu ibora o'zbek tilidagi "pashshaga ham ozor bermagan" yoki "qo'y og'zidan cho'p olmagan" iboralari bilan semantik ma'nodoshlik hosil, ammo o'zbek tilidagi madaniyat va inson dunyo qarashi tufayli g'oz zoonomikasi o'rniga pashsha yoki qo'y hayvon nomlari ishlatiladi. Tildagi "when pigs fly" iborasi biror voqea hodisaning sodir bo'lish ehtimoli juda kamligini ifodalashda ishlatiladi. Mazkur ibora o'zbek tilidagi "tuyaning dumi yerga tekkanda" iborasi bilan semantik jihatdan mos keladi. Bu ibora o'zbek tilida ham biror voqea hodisaning sodir bo'lish ehtimoli, yo'qligini ifodalasada o'zbek tilida cho'chqa zoonomikasi o'rniga tuya hayvon nomi ishlatiladi, bu o'zbek millatining diniy qarashlari asosida shakllangan. Bunday holatga yana "act as a guinea pig" iborasini ham keltirishimiz mumkin. Bu ibora o'zbek tilidagi "tajriba quyonchasi bo'lmoq" tarzida qo'llanib, biror bir voqea hodisada birinchi bo'lib ko'ngilli sifatida ishtirok etib berish ma'nosida qo'llanadi. Ammo o'zbek(musulmon)lar dunyo qarashi va madaniyati, diniy qadriyatlari ta'sirida o'zbek tilida cho'chqa zoonomikasi umuman uchramaydi.

Ingliz tilida esa diniy qarashlar ta'sirida Bibliyadagi hayvon obrazlari keng tarqalgan, lamb (qo'y) – begunohlik, serpent (ilon) – yovuzlik, lion – kuch-qudrat timsoli sifatida ishonilgan va shu tarzda inson fe'l atvori va hatti harakatini ifodalovchi iboralar shakllangan.[5-12] Navbatdagi zoonomik ibora sifatida "kill two birds with one stone" ko'rib chiqiladi. Ushbu ibora bitta harakat orqali, ikki natijaga erishish ma'nosini ifodalaydi. Ammo o'zbek tilida ushbu ma'noni ifodalashda "bir o'q bilan ikki quyonni urmoq" iborasi ishlatiladi. Ko'rinib turganidek o'zbek tilidagi ushbu iborada qush o'rnida quyon, tosh o'rnida o'q ishlatiladi, bu esa o'zbek va ingliz tilidagi iboralarning qiziqarli semantik farqlaridan biridir. Ingliz va o'zbek iboralarning o'xshashlik va farqlarini qiyosiy tahliliga bag'ishlangan izlanishlar talaygina, bu borada Fozilov Mirvohid o'zining izlanishlari orqali bizga qiziqarli qiyosiy tahlil namoyish etgan. Misol uchun "A hungry fox dreams about chicken" iborasi o'zbek tilidagi "Tuya hammomni orzu qilibdi" iborasi bilan bir xil semantik ma'noni hosil qiladi. Bu iboralar ikki tilda ham insonlarning harakatlaridanda ziyodasini ko'zlayotganligi ifodalash uchun ishlatiladi. Ammo o'zbek tilida ushbu ma'noni ifodalash uchun tulki emas, tuya ishlatiladi, bu esa ikki millatning urf odatlari, qadriyatlari bilan bog'liqdir deya ta'kidlaydi izlanuvchi[6-3].

Xulosa. Yuqorida tahlil qilingan iboralarning o'xshashliklari va farqlaridan kelib chiqib shuni ayta olamizki, har ikki tilda ushbu iboralardan og'zaki nutqda o'rinli foydalanish tilning boyligini, jozibadorligini oshiradi va ifodaviylikni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Xoshimova Odina Olim qizi o'zbek va ingliz tillarida zoonomik frazeologik birliklarning leksik-semantik va leksikografik tadqiqi. Phd dissertatsiyasi 6-b.
2. D.Usmonova Frazeologik iboralar va ularga misollar (iboralarga misollar)| Ўзбек Тилида Фразеологик Иборалар Тўплами
<https://audiobook.uz/blogs/news/frazeologik-iboralar-va-ularga-misollar>

3. Stankevich O.S "Ingliz tilidagi og'zaki zoonimlarning semantik bo'limi" maqola.
- 4." Phrasal verbs and idioms" Rawdon Wyatt kitobi. 6-b
5. Xoshimova Odina Olim qizi o'zbek va ingliz tillarida zoonomik frazeologik birliklarning leksik-semantik va leksikografik tadqiqi. Phd dissertatsiyasi 12-b
- 6.Fozilov.M Maqola - Ingliz va o'zbek tillaridagi zoonomik komponentlarning o'xshashliklari va farqlari. 3-b
7. www.deepl.com
8. <https://Theidioms.com>
9. <https://dictionary.cambridge.org/>
10. Universitet axborot resurs markazi

